

## ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDA OCHIQLIKNI TAMINLASH

Pardayev Asadbek Olimjon o‘g‘li

**Anatatsiya:** O‘zbeklistoon Respublikasida Ichki ishlar organlari ichki xavfsizlik va fuqorolarning xavfsizligini taminlab yurtimiz osoyishtaligiga katta hissa qo‘sib kelmoqda, fuqorolaring xavfsizligini taminlashda boshqa davlat organlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritib o‘z vazifalarini to‘liq bajarib kelmoqda. Bunday vazifalarni bajarishda o‘ziga tegishli bo‘lgan narmativ-hujjatlarga tayangan holda belgilangan prinsiplarga asoslangan holda “ochiqlik va shaffoflik” bilan o‘z xizmat vazifasini bajarib kelmoqda. Ichki ishlar organlari o‘z faoliyatini ochiq va shaffof tarzda, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, boshqa tashkilotlar va fuqarolar, shuningdek ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda ichki ishlar organlarining faoliyati haqida, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga bevosita daxldor bo‘lgan haqqoniy axborotni olish huquqiga ega, foydalanilishi qonun bilan cheklangan axborot bundan mustasno amalga oshirish huquqlariga ega bo‘lgan. Shuningdek Ichki ishlar organlari “Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotdan foydalanilishini ta’minlaydi.

**Анататсия:** В Республике Узбекистан органы внутренних дел способствуют миру нашей страны, обеспечивая внутреннюю безопасность и безопасность граждан, и в полной мере выполняют свои обязанности, сотрудничая с другими государственными органами в обеспечении безопасности граждан. При исполнении таких обязанностей он выполнял свои обязанности «открыто и прозрачно» на основе установленных принципов, опираясь на принадлежащие ему нормативные документы. Органы внутренних дел осуществляют свою деятельность открыто и прозрачно, во взаимодействии с государственными органами, органами самоуправления граждан, другими организациями и гражданами, а также средствами массовой информации. Также физические и юридические лица имеют право на получение правдивой информации о деятельности органов внутренних дел, а также о правах и законных интересах физических и юридических лиц, за исключением информации, использование которой ограничено законом. Также органы внутренних дел обеспечивают использование информации о своей

деятельности в порядке, установленном Законом Республики Узбекистан «Об открытости деятельности органов государственной власти и управления».

**Anatation:** In the Republic of Uzbekistan, internal affairs bodies contribute to the peace of our country by ensuring internal security and safety of citizens, and fully fulfill their duties by cooperating with other state bodies in ensuring the safety of citizens. In the performance of such tasks, he has been performing his duties with "openness and transparency" based on the established principles, relying on the normative documents that belong to him. Internal affairs bodies carry out their activities in an open and transparent manner, in cooperation with state bodies, self-government bodies of citizens, other organizations and citizens, as well as mass media. Also, individuals and legal entities have the right to receive truthful information about the activities of internal affairs bodies, as well as the rights and legal interests of individuals and legal entities, except for information whose use is limited by law. Also, internal affairs bodies ensure the use of information about their activities in accordance with the procedure established by the Law of the Republic of Uzbekistan "On the openness of the activities of state authorities and management bodies".

**Kalit so‘zlar:** Ochiqlik, shaffoflik, ommaviy axbarot vositasi, jamoatchilik nazorati, hisobdorlik,

Ochiqlik (transparency) - bu tashkilot yoki shaxs o'z faoliyati, qarorlari va jarayonlari haqida to'liq ma'lumot berishni anglatadi. Bu ochiqlik shaffof bo'lish, ma'lumotlarni yashirmaslik va har qanday savollarga ochiq javob berishdan demakdir.

Shaffoflik (accountability) - bu tashkilot yoki shaxs o'z faoliyati uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishni anglatadi. Bu qarorlar va harakatlar uchun javob berish va ular uchun javobgarlikni qabul qilishdir.

Ommaviy axborot vositalari (qisqartmasi: OAV) keng ommaga axborot yetkazuvchi vositalardir. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazeta, jurnal, axborotnama, bulleten va boshqalar) va yoki elektron tarzda (televideniya, radio, video, kinokronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari OAV deb aytildi.

Jamoatchilik nazorati-bu davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda nodavlat tashkilotlar faoliyati ustidan fuqarolar, ularning birlashmalari va o'zini-o'zi boshqarish, fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalari tomonidan qonun doiralarida

olib boriladigan nazorat hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 36-moddasiga muvofiq fuqarolar davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishlari mumkin.

Hisobdorlik-davlat organlari va tashkilotlari tomonidan har oyda, har chorakda, har yarim yilda, qilingan ishlar bo‘yicha yuqori davlat organlariga va ommaviy axbarot vositalariga yoki jamoatchilik nazorati tashkilotlariga yozma va og‘zaki tarzda axbarot yoki ma’lumot berish tushuniladi.

Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari faoliyatida ochiqlikn kuchaytirish, davlat boshqaruvi organlari uchun samarali faoliyatni amalga oshirish, fuqarolar va jamoatchilikka axborot va davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarni yaxshilash imkonini beradi. Bu shuningdek, davlat organlari faoliyatida shaffoflikni va fuqarolar ishtirokini oshirishga, hamkorlikni bilvosita kuchaytirishga va demokratik jarayonlarni osonlashtirishga imkon beradi. Hozirgi inqirozli jahon iqtisodiyotida fuqarolarga davlat xizmatlarini ko‘rsatish va boshqarishda samaradorlik, shaffoflik, tezkorlik, ishtirok etishni ta‘minlash uchun strategik milliy rejallashtirishni talab qiladi. Oshkorlik bo‘yicha davlat siyosati bu borada muhim rol o‘ynaydi. Shaffoflikni oshirish tendensiyasi kelajakdagi hukumatning asosiy o‘zgarishlaridan biridir. Davlat boshqaruvi organlari faoliyatining shaffofligiga ularning faoliyati, qarorlari, natijalari va faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni jamoatchilik osonlikcha topib foydalanishi mumkin bo‘lgan shakllarda oshkor qilish orqali erishish mumkin. Davlat boshqaruvi uchta muhim maqsadni amalga oshirishda faol ishtirok etadi: fuqarolar oldida ko‘proq mas’uliyatli bo‘lish, samaraliroq va tejamkor bo‘lish, aholining axborotdan kengroq foydalanishini ta‘minlash bu borada katta rol o‘ynaydi. Shaffoflik va ochiq ma’lumotlar davlat xizmatlarini takomillashtirish, innovatsiyalarni tezlashtirish va fuqarolar huquqlarini kuchaytirish uchun kuchli vosita bo‘lishi mumkin. Shunigdek har bir davlat organlarida ochiqlik va shaffoflik asosiy vazifa sifatida rol o‘ynashi lozim. Ichki ishlar organlarida ham ushbu vazifani amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrda qabul qilingan 407-sonli “Ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi” qonunining 9 moddasida keltirib o‘tilgan.

Ichki ishlar organlarida ochiqlik va shaffoflikni taminlashda hozirgi kunda kata e’tibor qaratimoqda, shunigdek muhtaram prezidentimiz tomonidan ochiqlik va shaffoflik haqida o‘z fikrlarini aytib o‘tgan, “Ichki ishlar organlarida xodimlarning bu prinsiplarga rioya qilishi ochiqlik va shaffoflikni oshiradi, tashkilotning ishonchlilagini va samaradorligini ta‘minlaydi, hamda fuqarolar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatishga yordam beradi”, “Ochiqlik va shaffoflik – bu xalq bilan muloqotning asosi. Har bir fuqaro o‘z muammolarini ochiq aytish va davlat

organlaridan javob olish huquqiga ega. Biz bu yo'nalishda ishlarni davom ettirishimiz kerak" so'zleri asosiy g'oya sifatida tilga olinmoqda. O'zbekiston Prezidenti, ochiqlik va shaffoflik masalalariga katta e'tibor qaratib kelmoqda. Shuningdek ushbu tizimning faoliyatini nazorat qilish uchun ommaviy axbarot vositalarining o'rni katta hisoblanadi. OAV quyidagi yo'llar bilan bu jarayonga hissa qo'shadi:

- Ma'lumot tarqatish- OAVlari ichki ishlar organlarining qarorlari, faoliyatlari va yutuqlari haqida jamoatchilikka tez va keng qamrovli ma'lumot yetkazadi.
- Ochiq muloqot- Intervyular, matbuot anjumanlari va brifinglar orqali ichki ishlar organlarining vakillari bilan ochiq muloqotni tashkil etadi.
- Nazorat va monitoring (Nazorat va monitoring)- OAVlari ichki ishlar organlari faoliyatini mustaqil ravishda nazorat qiladi, qonunbuzarliklar yoki noto'gri harakatlarni aniqlaydi va yoritadi.
- Jurnalistik tekshiruvlar- Tergov jurnalistikasi orqali ichki ishlar organlaridagi korrupsiya va suiiste'molliklarni fosh etadi.
- Ochiq hisobdorlikni talab qilish- OAV ichki ishlar organlaridan o'z faoliyatlari haqida ochiq hisobot berishni talab qiladi va bu jarayonni kuzatib boradi.
- Shikoyatlar va muammolarni yoritish- Fuqarolar tomonidan ko'tarilgan shikoyatlar va muammolarni yoritib, ichki ishlar organlariga yetkazadi.

Shuningdek yuqorida korasitilgan asosiy yo'llar ochiqlik va shaffoflikni taminlashga katta hissa qo'shadi. OAVlar ichki ishlar organlari va jamoatchilik o'rtasida muhim ko'priq vazifasini bajaradi, bu esa davlat organlarining ishonchliliqi va samaradorligini oshiradi. Bu samaradorlik oshirilishi davlatning demokratlashishiga, jahonda boshqa davlatlardan huquqiy jihatdan yuqoriqoq darajada bo'lishida katta yordam beradi. Shuningdek jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ichki ishlar organlarida korrrupsion holatlarni oldini oladi va sansanadorlikka yo'l qo'yaydi. Shuningdek ichki ishlar organlarida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashda xodimlarning roli juda muhimdir. Ularning kundalik faoliyati, qarorlari va muomalalari tashkilotning umumiy shaffofligi va ochiqligini belgilaydi. Quyida xodimlarning bu jarayondagi o'rni qanday ekanligi haqida ba'zi fikrlar keltirilgan:

1. Professionalizm va Etika (Etik me'yorlarga rioya qilish)- Ichki ishlar xodimlari yuqori etik me'yorlarga rioya qilib, o'z xizmat burchlarini halol va adolatli bajarishlari kerak. Bu ochiqlik va shaffoflikning asosi hisoblanadi.

2.Ochiq muloqot- Xodimlar fuqarolar bilan ochiq va tushunarli muloqot qilishlari, ularning savollariga aniq va to'g'ri jayob berishlari va xizmat doirasida foydalanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlardan tashqari tegishli ma'lumotlarni taqdim etish maqsad muvofiq bo'ladı.

3.Ma'lumotlarni oshkorlik bilan taqdim etish- ya'ni narmativ hujjatlarda belgilangan tarzda fuqorolarda ma'lumotlarni taqdim etish, shuningdek xodimlar faoliyatları va qarorlari haqida tegishli ma'lumotlarni jamoatchilikka ochiq taqdim etishlari kerak.

4.Shuningdek fuqorolarning muommo va kamchiliklarini, shikoyatlar va murojaatlarni ko'rib chiqish.

5.Shaffoflik ma'daniyatini targ'ib qilish- ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan ma'muriyat binolariga turli ochiqlik va shaffoflik haqida stendlar va ko'rgazmalli rasmlar bilan targ'ib qilish, shuningdek xodimlar orasida shaffoflik madaniyatini rivojlantirish, bu qadriyatlarni o'z faoliyatlarida amalda qo'llash.

6.Axborot texnologiyalaridan foydalanish- xodimlar zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'z faoliyatlarini ochiq va shaffof qilishlari mumkin. Masalan, onlayn hisobot berish, elektron ariza va shikoyat tizimlari orqali fuqarolar bilan aloqada bo'lish.

7.Ma'lumotlar bazalarini yangilash- Fuqarolar uchun ochiq bo'lgan ma'lumotlar bazalarini muntazam ravishda yangilab turish, ularga kirish imkoniyatini ta'minlash. Yuqorida ko'rsatilgan asosiy yo'nalishlar fuqoqrolar va ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida ishonchni kuchaytirib, ishning samadorli bo'lishini taminlaydi va davlatning demokratik boshqaruviga katta hissa qo'shadi.

O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrda qabul qilingan 407-soni " Ichki ishlar organlari to'g'risidagi" qonunining 131 moddasida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hududiy bo'limmalari rahbarlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari Kengashlari oldida hisobdorligi keltirib o'tilgan. Ichki ishlar organlarining ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalarining, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining boshliqlari huquqbazarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to'g'risida, ularning o'rinosarlari — Jamoat xavfsizligi xizmati boshliqlari jamoat xavfsizligi haqida har chorakda tegishinchcha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari Toshkent shahar va viloyatlar Kengashlariga hisobot taqdim etadi .

Shuningdek, Tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmalarining (bo‘limlarining) boshliqlari huquqbazarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to‘g‘risida har chorakda, ularning o‘rinbosarlari — Jamoat xavfsizligi xizmati boshliqlari jamoat xavfsizligi haqida har oyda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga hisobot taqdim etadi va mahalla huquq-tartibot maskanlarining profilaktika katta inspektorlari jamoat xavfsizligini ta’minlash holati to‘g‘risida har olti oyda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga hisobot taqdim etadi. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hududiy bo‘linmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitishga tegishli hududda joylashgan boshqa davlat organlarining, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, korxonalarining, muassasalarining, tashkilotlarning, shu jumladan nodavlat notijorat tashkilotlarining, siyosiy partiyalarning, ommaviy axborot vositalarining vakillari va boshqa shaxslar taklif etilishi mumkin. Yuqorida keltirilgan asosiy tushunchalar ochiqlik va shaffoflikni va korrupzion holatlarning oldini olishni va turli tanish bilishchilikka yo‘l qo‘yishning oldini oladi.

Shuningdek ichki ishlar organlarida ochiqlikni taminlash bo‘yicha IIV axborot multimedia markazlari tashkil etilgan, ushbu markaz fuqarolarga bevosita ochiq ma’lumotlarni taqdim etadi. Shuningdek ushbu organ boshqa ommaviy axborot vositalarining konstitutsuyaviy huquqlarini cheklamasdan amalga oshiradi. Ommaviy axbarot vositalari O‘zbekiston respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan huquqlarga egadir.Ular quydagilar 81-modda.

Ommaviy axborot vositalari erkendir va qonunga muvofiq ish olib boradilar.

Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Ommaviy axborot vositalari o‘zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir.

82-modda.

Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to‘sinqilik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Jamiyatda huquqiy ongni shakllantirish va fuqoqrolarning huquq va erkinliklaini taminlashda bir qancha ishlar amalga oshirildi, bularga misol qilib “Xalq qabulxonalar” ining tashkil etilganligi, “prezident portallari” yo‘lga qoyilganligi, “ochiq ma’llumotlar portalı” tashkil qilinganligi <https://stat.uz/uz/>, II Olarida

qabullar tashkil qilinganligi (sayyor qabullar, ommaviy qabullar) shuningdek boshqa tashkiliy ishlar hammasi fuquqolarning huquq va erkiligini taminlashda ochiq va shaffof harakat qilishdir. Shuningdek hozirgi kunda demokratik vaziyatda har bir sohada ochiq-oydin faoliyat yuritilmoqda, misoli uchun o'qishga qabul jarayonlarining kameralashtirishi, haydovchilik guvohnomalar olishda test jarayonlarining ochiq va shaffof o'tkazilishi uchun turli tashkilotlardan iborat bo'lgan komissiya tuzilib nazorat faoliyatini yo'lga qo'yildi. Bu komissiya korrupsiyon holat va boshqa noqonuniy faoliyatning oldini oladi.

Shuningdek Ichki ishlar organlarida ochiqlik va shaffoflikning afzallikkari quydagicha:

**Ishonchni barqarorlashtirish :** Tashkilot davlatning ochiq va ishonchli ishonchini mustahkamlaydi. Fuqarolarga nisbatan qabul qilinayotgan qarorlar adolatlilik qilinayotganiga ishonch hosil qiladi.

**Korrupsiyani oldini olishni qo'llab-quvvatlash :** Ochiqlik va shaffoflikka yordam beradi. Ma'lumotlar ochiq-oydin bo'lgan taqdirda, korrupsiyon holatlar yuz berishini yoki shunga o'xshash harakatlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

**Mas'uliyatni va davlat boshqaruvi shakllantirish:** Shaffoflik va ochiq xizmat orqali rahbarlar o'ziga tegishli mas'uliyatli vazifalarni to'liq bajaradilar.

**Fuqarolik ishtirokini ta'minlash :** Ochiqlik jarayonlari orqali o'z va tashkilotlari yoki davlat boshqaruvining faoliyatida faol ishtirok etish o'tkazishga ega bo'ladi. Bu esa ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi.

**Rivojlanish va himoyalanish :** Ochiqlik va ochiq tizimlar tashqi muhitga katta tasir o'tkazadi. Har qanday jarayonning tushunarli bo'lgan xodimlarini o'z harakatlariga samarali erishishga yetaklash kabi ishlarni amalga oshirishga katta yordam beradi.

### Xulosa:

Ichki ishlar organlarida ochiqlik va shaffoflik zamonaviy dunyoda davlat va xususiy sektorlar uchun ajralmas qism bo'lib, ishonch, mas'uliyat va samaradorlikni rivojlanirishda katta yordam beruvchi usuldir. Ochiqlik va shaffoflik huquqni muhhofaza qiluvchi organlar va tashkilotlarni fuqoqrolar bilan aloqa sifatini yaxshilashga va uzoq muddatli saqlashlikka xizmat qiladi. Shu tufayli, jamiyatning har bir qismida ochiqlik va ochiqlikni qo'llab-quvvatlash katta ahamiyatga ega va davlatda huquqiy jamiyatni shakllantirishda katta yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi

**31.10.2024, UNITED KINGDOM**

<https://confrencea.one>

2. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrda qabul qilingan 407-sonli “Ichki ishlar organlari to‘g‘risdagi” qonuni
- 3.O‘zbekiston Respublikasining ochiq malumotlar portali <https://stat.uz/uz/>
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ochiqlik va shaffoflik haqida matni.